

**YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA IJTIMOIIY-
AXLOQ MASALALARI**

Sabirova Surayyo Farxod qizi

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Ijtimoiy ish
ta‘lim yo‘nalishi talabasi; e-mail: sobirovasurayyo255@gmail.com*

Saipova Iroda Otaqul qizi

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Ijtimoiy ish
ta‘lim yo‘nalishi talabasi;*

Ilmiy rahbar: Ibragimov Jahongir Toshniyozovich

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi
e-mail: Jahongir.5066@gmail.com*

Annotatsiya: *Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari, asar ma‘no -
mazmuni tushunish va izohlash, asardagi milliy ruh, o‘zbekona insoniy sifatlar,
hamda, o‘z hayotiy tajribasi va asar tasvirini qiyoslagan holda baho bera olish,
badiiy asar qahramoni ruhiyatini anglash va faol munosabat bildirish.*

Kalit so‘zlar: *ta‘lim, tarbiya, bilim, adolat, mohiyat.*

Аннотация: *Произведение Юсуфа Хоса Хаджиба «Кутадгу Билиг»,
понимание и интерпретация смысла произведения, национального духа,
узбекских человеческих качеств в произведении, умение оценить его путем
сравнения собственного жизненного опыта и образа произведения,
художественно понимать и активно реагировать на психику героя
произведения.*

Ключевые слова: *образование, обучение, знание, справедливость,
сущность.*

Abstract: *The work of Yusuf Khos Hajib “Kutadgu Bilig”, understanding
and interpretation of the meaning of the work, the national spirit, Uzbek human
qualities in the work, the ability to evaluate it by comparing one’s own life*

experience and the image of the work, to artistically understand and actively respond to the psyche of the hero of the work.

Key words: *education, training, knowledge, justice, essence.*

KIRISH

Ijtimoiy axloq yoki jamoat hayoti etikasi - amaliy axloqning bo'limi, axloqiy munosabatlarni - insonning jamiyatdagi qadriyatlarini, maqsadlarini, burchlarini o'rganadi. Ijtimoiy etika guruh, institutsional va korporativ munosabatlarni me'yoriy asoslash, shuningdek, yetimlik, qashshoqlik, mahrumlik, muhtojlarga yordam berish, qariyalar muammolari, ijtimoiy muammolarni hal qilishda nazorat qilish va yordam berish usullarini ishlab chiqishga imkon beradi. Ijtimoiy - hamjihatlik (hamkorlik) insonlar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradigan tushunchalar kategoriyasi.

“Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir”. Ta’lim-tarbiya nafaqat ta’lim muassasalarida, balki, birinchi galda oilada shakllanib boradi. Xususan, mahallada, do‘stlar, qarindoshlar davrasida. Tarbiya borasida maktab va oilani bir-biriga bog‘lamasdan o‘rganib bo‘lmaydi. Ta’lim-tarbiyaga oid yaratilgan asarlarning asosiy o‘zagi, insoniylik, insonni ulug‘lash g‘oyasi sanalgan. Bu g‘oyani, ya’ni insonparvarlik g‘oyasini amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy munosabatlar va hislatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi ta’lim-tarbiyani amalga oshirish muhim masala qilib qo‘yilgan.

Jadid bobomiz Abdulla Avloniy shunday deydi: “Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja beruvchi axloq tarbiyasidir. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, dedik, chunki: dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchi demakdir”

ASOSIY QISM

Ta’limiy-axloqiy asarlarda insonning ma’naviy kamolga yetishida yuksak axloqqa ega bo‘lishi ilm-fanni egallashi asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g‘oya ilgari surilgan. Hozirgi zamon ta’lim-tarbiyasi, istiqloq mafkurasi ana

shu merosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, o'z oldiga qo'ygan maqsad-vazifalari sharaf bilan bajarishi mumkin. Chunki, ular odobnomasi, ibratnomasi oilada bolalarni har tomonlama tarbiyalash, kamolga yetkazish, ma'naviyatimizning ustivor iymon- e'tiqodlarimizning butun bo'lishligini, qadrlil qadriyatlarimizning qadrlanishi garovidir. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari shu yo'lda yaratilgan durdonalardan biridir. Turkiy shoir, mutafakkir, davlat arbobi bo'lmish Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" (Saodatga yo'llovchi bilim) muallifi.

"Qutadg'u bilig" - XI asr so'z san'atining nodir namunasi bo'lib, unda o'z davrining ilg'or ijtmoy-siyosiy, ma'naviy axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat va an'analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma'lumot berilgan. Yusuf Xos Hojib uni Bolasog'unda boshlab, Qashqarda yozib tugatgan va qoraxoniylar hukmdori Tavg'och Bug'roxonga taqdim etgan. Bug'roxon muallifni taqdirlab, unga „Xos Hojib“ („Eshik og'asi“) unvonini bergan. Shundan keyin shoir „Yusuf Xos Hojib“ nomi bilan mashhur bo'lgan. Bu asar Qoraxoniylar davlatining mustahkam qaror topishiga xizmat qilgan nizomnomadir. Uch nusxasi (Vena, Qohira va Namangan) mavjud. Nisbatan to'lig'i Namangan nusxasi bo'lib, 1923-yili Fitrat tomonidan qo'lga kiritilgan. 6520 baytdan iborat, masnaviy (ya'ni aruzning „mutaqoribi musammani mahzuf“) vaznida yozilgan. Lekin dostonning oxiridagi shikoyat ohanglariga qaraganda, shoir umrining oxiri bu davlatning tanazzuli davriga to'g'ri kelgan, shunga muvofiq hayoti ham og'ir kechgan. Shoirning Qashqardagi maqbarasi ziyoratgohga aylangan. Davlat va jamiyat qurilishi masalalari, komil inson va ilm-ma'rifat targ'iboti asardagi to'rt ramziy qahramon Kuntug'di (adolat), Oyto'ldi (baxt), O'gdulmish (aql) va O'zg'urmish (qanoat) timsollari orqali ifoda qilingan. Bizning xalqimiz shunday axloqiy-didaktik, adabiy-qomusiy asari borligidan har ancha faxrlansa arziydi.

Qutadg'u bilig - „**qut**“ - baxt, saodat, „**bilig**“ - bilim degan ma'noni bildiradi. Shunga ko'ra asar nomini "Baxtga eltuvchi bilim" yoki "Saodatga yo'llovchi bilim" deb tarjima qilish mumkin. Abdurauf Fitrat uni "Baxtliklanish

bilimi” deb o‘g‘irgan. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasihatlari, ta‘lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan yetuk ma‘rifiy asar ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Asarda ilgari surilgan axloqiy xislatlarni sanab o‘tish olimning ta‘lim-tarbiya, axloq masalalarini qay darajada chuqur bilganligi adolat, ishonch, sadoqat, hushmuomalalik, shirin so‘zlik, saxovat, mardlik, hurmat va ehtirom, tadbirkorlik, aql-zakovat, halollik, ezgulik kabi, xislatlar ulug‘lanadi.

Qutadg‘u biligda bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Yusuf Xos Hojib bu asari orqali o‘z tasavvurida eng komil, jamiyatning o‘sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday ko‘rgan bo‘lsa, shu asosda o‘z prinsiplarini bayon etadi. Mana shunday axloqiy masalalardan biri oila va farzand tarbiyasi masalasidir. Bu umuminsoniy axloqiy normaga Sharq etikasiga ahamiyat berib kelgan. Sharq xalqining ulug‘ an‘anasini , oilaviy hayotini, turmush tarzi va tarbiya usullarini chuqur bilgan shoir mazkur muhim axloqiy muammoni o‘ziga xos falsafiy talqin qiladi. Yusuf Xos Hojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak.

Qutadg‘u bilig asari yaratilishining asosiy sababi , shu davrdagi ijtimoiy jarayonlarni bilvosita asar orqali yoritib berishdir. Jumladan , Yusuf Xos Hojib asarni yaratar ekan, o‘z oldiga qoraxoniylar davlati hokimiyatini mustahkamlash, hukmdorlar o‘rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etish va hamkorlik o‘rnatish, hukmron toifalarni turli ijtimoiy tabaqalarga munosabatini tasniflash, ma‘rifatni, yaxshi xulq-odobni ommaga targ‘ib qilish kabi bir qancha maqsadlarni qo‘ygan.

Hukmdorlar adabnomasi — „Qutadgu bilig“ qoraxoniylar sulolasi misolida turkiy davlatchilik asoslari yangi bosqichga ko‘tarilgan davrda zamon kun tartibiga qo‘ygan siyosiy-ijtimoiy masalalarni hal qilishda asosiy dastur bo‘lgan. Shoirning u yoki bu masala bo‘yicha pand-nasihatlari xuddi hikmatday jaranglaydi, xalq maqollariga o‘xshab ketadi ,ularning badiiy yuksakligi va ma‘rifiy ahamiyati ham shunda. Qutadg‘u bilig – adabiy asar badiiy adabiyot namunasi. Adabiy qahramonlarni 4 ta timsolni tashkil etadi :

Biri tog‘rilikka tayanch – Adolat

Biri Davlat erur, u qutli g‘oyat

Uchinchi – ulug'lik Aql ham tako

To'rtinchi Qanoat erur bebaho.

Kuntug'di(chiqqan quyosh) –adolat ramzi, bosh hukmdor, u quyoshdek barchaga barobar nur sochadi, hech qachon o'z tabiatini o'zgartirmaydi, chunki yaxshi qiliq oq sut bilan kirsam, o'lim kelib tutmaguncha o'z tarzini buzmaydi, deb uqtiradi. Yusuf Xos Hojib tasvirida Kuntug'di „ qilmishlari to'g'ri, fe'li rost , tili chin, yetuk, ko'zi va ko'ngli boy, bilimli zakovatli hushyor, yomonlarga misli bir olov edi”.

Oyto'ldi- vazir, ayni paytda davlat ramzi . Uning fe'l- atvorida barcha ezgu hislatlar mujassam. Shunga qaramay, davlat alohida e'tiborni ham talab qildi . Yusuf Xos Hojib bunday mulohazalarni o'z qahramonlarini so'zlatish orqali ko'rsatib berdi. Oyto'ldi butun umrini el- yurt ishiga , mamlakat ravnaqiga, yutda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yuksaltirishga sarflaydi. Ammo voqealar davomida vafot etadi. Aslida , bu davlatni bebaholigiga ishoradir.

O'gdulmush- asardagi eng faol qahramon, aql va bilim ramzi. U Oyto'ldining o'g'li. O'gdulmush so'zining ma'nosi „o'g'” bilan bog'liq. U aql idrok ma'nosiga ega. O'gdulmush „ aql bilan ziynatlangan “ deganidir. Yusuf Xos Hojib „ Davlat adolat va aql bilan boshqarilmog'i kerak” fikrni ramziy shaklda ifodalangan. O'gdulmush va O'zg'urmushning savol- javoblari ba'zan keskin munozara darajasiga yetadi. O'gdulmush shunda ham bosiqlik qiladi, aql bilan fikr yuritadi. O'zg'urmushni o'z g'oyalariga ishontira oladi. Uning fikricha:

Xudo berdi qulga ikki ko'z quloq,

Ular bilan dunyo, oxiratga boq.

Ushlash uchun berdi yana ikki qo'l,

Biri dunyo, biri oxiratga yo'l.

Ikki oyoq berdi yana yurishga,

Biri u yon, biri bunda turishga.

Elig bilan savol- javobda O'gdulmush turli- tuman kasb – hunar egalarining fazilarlari haqida gapiradi. Uning bek, elchi, kotib xizmatchi va boshqalar haqidagi fikrlari hayotiyiligi , pand- nasihatlariga boyligi bilan ajralib turadi.

O'zg'urmish so'zining ma'nosi „hushyor qiluvchi, sergaklantiruvchi“ deganidir. Qanoat timsoli bo'lib, uning zohid qiyofasida ko'rinishida shu ma'noga uyg'unlik bor. U behuda ishlar bilan band bo'lish, har xil mayda chuyda orzu-havaslarga ovunib umrini behuda o'tkazib yuborishdan ogohlantiradi. Mudrab borayotgan tuyg'ularni sergaklantiradi. Dunyoda faqat davlat yoki aql bilan bitirib bo'lmaydigan ishlar ham borligidan, inson ko'nglida nozik tuyg'ular mavjlanib turushidan xabar beradi, shu tuyg'ularga beparvo bo'lmaslikka undaydi, umrini behuda o'tkazmaslik uchun hushyorlikka chaqiradi. Shunga muvofiq ravishda qo'yilgan masalalar voqealar rivoji, qahramonlarning o'zaro suhbat, bahs - munozarasi, savol-javoblari, pand - nasihatlar vositasida hal qilinadi.

Muallif bahsli masalalar yuzasidan ham odob – axloq, ilm, insoniylik va adolat doirasida fikr yuritadi hamda podshoh va amaldorlardan tortib dehqon-u hunarmandgacha — jamiyatdagi barcha toifalarning huquq va burchlari haqida o'z mulohazalarini bildiradi. Borliq haqidagi bilimlarga to'xtalgan Yusuf Xos Hojib odam bilishi mumkin bo'lmagan narsa, bilim bilan yechilmaydigan jumboq yo'q, bilim tufayli osmon sari ham yo'l ochiladi, deydi; bilish uchun esa tinmasdan o'rganish lozim, deb uqtiradi. Qoraxoniylar saltanatida vazirlikni egallagan Yusuf Xos Hojib turkiy tilda she'riy doston bitib, turkiy xalqlarni ulug'lashni niyat qilgan. Ularning taqdim markazi bir yoki bir necha urug', elat, aymog emas, o'nlab turkiyzabon ulug'larni o'z ichiga oluvchi yagona turkiy xalqi bo'lgan.

XULOSA

Axloqqa nisbatan D.Yum shunday ta'rif beradi: «Axloq tushunchasi barcha insoniyatda qandaydir umumiy hissiyot tug'dirib, u bitta obyektga umumiylikni ma'qullaydi va liar bir kishini yoki ko'pchilikni ma'lum xulosaga olib kelib, bir-biriga itoat etishga qodir»¹. Ushbu ta'rif yuqorida keltirilgan Aristotelning qarashlariga to'g'ri keladi. Siyosat axloqiy qadriyatlarga asoslansa, ko'pchilikni umumiy harakatga, itoatga olib keladi. Shuning uchun axloqqa amal qilish shaxs va millatning ma'naviy dunyosi va salohiyat darajasi bilan bog'liq hodisa sifatida qaraladi.

¹ M.X.G'aniyeva. *Ijtimoiy ish etikasi*. Darslik. Toshkent. "Fan va texnologiya" nashriyoti-2015.19-bet.

Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida shunday yozadi: “Jamiyatimizda sog‘lom fikr, sog‘lom kuch ustuvor bo‘lishi uchun biz ma’naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta’sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muttasil o‘ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning tahlili, afsuski, ular aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotganini ko‘rsatmoqda”.²

Axloq va uning ijtimoiy mohiyati to‘g‘risida Abdulla Avloniy shunday deydi: «Insonlarni yaxshilikga chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg‘on kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o‘qub, bilub amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur»-. Ko‘rinib turibdiki, A. Avloniy axloqqa nisbatan nafaqat ilmiy ta’rif beradi, balki uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ochadi. «Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligi» bevosita siyosiy faoliyatda ham o‘z ifodasini namoyon qiladi. Chunki, xulq-atvor inson faoliyati orqali ijtimoiy hayotga u yoki bu tarzda ta’sir o‘tkazadi.

Jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyilini qarir toptirish borasidagi asosiy vazifamiz - bu adolatli qonunlar qabul qilishdan iborat. Qisqacha aytganda, qonun adolatli bo‘lsa, u inson huquqlarini amalda himoya qilsa, shundagina odamlar qonunni hurmat qiladi va unga itoat etadi.³

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, asarni o‘qir ekansiz undan hayotni sevishga, har qanday og‘ir vaziyatda yashashga intilishga, umrining har bir daqiqasini mazmunli o‘tkazishni o‘rgatadi, hamda, asarda kelajak avlodni qanday yaratishda o‘zining pand- nasihatlarini yetkazishga intildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 bet.

² Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 254-bet.

³ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. 35-bet.

2. Sh.Mirziyoyev Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.
3. Sh.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat’iy intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarning kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent. “O‘zbekiston”, 2017.
4. M.X.G‘aniyeva. Ijtimoiy ish etikasi. Darslik. Toshkent. “Fan va texnologiya” nashriyoti-2015.
5. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” (saodatga yo‘lovchi bilim). “Fan” nashriyoti. Toshkent – 1971.
6. Amir Temur “Temur Tuzuklari”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matba birlashmasi 1991.
7. I.A.Karimov Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch Tosh. 2008.62-bet.
8. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/yusuf-xos-hojib-qutadgu-bilik-emin-usmon-tarjimasi.html><https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/yusuf-xos-hojib-qutadgu-bilik-emin-usmon-tarjimasi.html>
9. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" asarining o‘rganilishi bo‘yicha qo‘shimcha ma'lumotlar. Ikbol Ismailova Olimboyevna. (2022). “PEDAGOGS” international research journal. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6474891>